

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI O‘ZINING MOLIYA, PUL VA BANK TUSHUMIGA EGA. (O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YANGI KONSTITUTSIYASI DOIRASIDA)

*Suyunov Sherzod Sindarovich*  
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi*  
*Universiteti magistratura tinglovchisi*

**Annotasiya:** Maqolada O‘zbekistonda demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatni barpo etish yo‘lida bosqichma-bosqich tarzda izchil islohotlar amalga oshirilishi haqida fikrlar ilgari surildi.

**Kalit so‘zlar:** konstitutsiya, demokratik, bank, moliya, budjet, sug‘urta, pul, kredit.

**Annotasiya:** В статье высказаны мнения о поэтапном осуществлении последовательных реформ в целях создания в Узбекистане демократического, правового, социального и светского государства.

**Klyuchevie slova:** конституция, демократия, банковское дело, финансы, бюджет, страхование, деньги, кредит.

**Annotation:** The article expresses opinions on the phased implementation of successive reforms in order to create a democratic, legal, social and secular state in Uzbekistan.

**Keywords:** constitution, democracy, banking, finance, budget, insurance, money, credit.

### Kirish

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganidan to shu davrgacha hayotimizning barcha jabhalarida o‘zini namoyon etishni boshladi. Chunki bu Konstitutsiya mustaqilligimiz mevasi sifatida yaraldi va mustaqilligimiz madhiyasi sifatida yangramoqda. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bugungi kunda barchamiz uchun mo‘tabar ijtimoiy qadriyatga aylandi. U ijtimoiy-siyosiy hayotimizning bosh mezoni, uzviy qismi sifatida ijtimoiy munosabatlarni puxta tartibga solmoqda va hayotimizni barqarorlashtiruvchi kuch sifatida maydonga chiqmoqda. Mazkur Konstitutsiya jamiyatni birlashtiruvchi, jamiyat hayotini rivojlantiruvchi va unga ilhom beruvchi kuch sifatida maydonga chiqdi desak xato qilmaymiz. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga baho berganda uni turli qirralarini eslab o‘tish joiz. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi tashqi-ichki siyosatining asosiy prinsiplarini belgilab berdi. Konstitutsiya tom mohiyatiga ko‘ra, yuridik-huquqiy hujjatdir. Chunki u davlatning bosh qonuni, butun davlat tizimini, ijtimoiy hayotini qonuniy-huquqiy me‘yorlab berdi. Shu nuqtayi nazardan ham uni jamiyatimiz uchun ahamiyati beqiyos. Jumladan, Konstitutsiyamizning 15–16-moddalarida ta’kidlanishicha, bizni endi bugungi ijtimoiy-siyosiy hayotimiz, konstitutsiya va u asosida qabul qilinadigan qonunlar ustuvorligi prinsipi uning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi asosida quriladi. Shu nuqtayi nazardan uni jamiyatni huquqiy zaminlarini barqarorlashtirib beruvchi hujjat sifatida e’tirof etish mumkin. O‘z

oʻrnida Konstitutsiyamizning muhim maʼnaviy potensialiga ega ekanligini eʼtirof etish lozim. Chunki Konstitutsiya yaratilar ekan, oʻzbek xalqining tub tarixiy

ildizlariga borib taqaluvchi maʼnaviyati, qadriyatlarini hisobga olgan holda qonuniy tarzda mustahkamlashga erishdik. Shuning uchun ham Konstitutsiyada yozilgan har bir satr xalqimizning dilidagi gap boʻldi, xalqimizning koʻngliga yoʻl topadigan qoida boʻldi. Uni qoʻlga olib oʻqir ekanmiz har bir boʻlimida, bobida va satrlarida xalqimizning yillar mobaynida koʻz qorachigʻiday asragan ozodligi, hurrligining nafasi ufurib turganligini guvohi boʻlishimiz mumkin. Bu Konstitutsiyani olib oʻqiganda har bir kitobxon Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini, xalqaro huquqning umum eʼtirof etilgan tamoyillarini oʻqiganday boʻladi. Bu Konstitutsiya oʻzining tub mohiyati, falsafasi, gʻoyasiga koʻra yangi hujjatdir, unda jamiki dunyoviy neʼmatlar orasida eng ulugʻ inson degan fikrini ilgari surilgan va shu asosda shaxs va davlat oʻrtasidagi oʻzaro munosabatning oqilona huquqiy yechimi topilgan. Oʻzbekistonda demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatni barpo etish yoʻlida bosqichma bosqich tarzda izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Yuqorida asosiy qonuning barcha sohalarni tartibga solishdagi rolini qayd etar ekanmiz, davlatning asosiy taraqqiyot omili boʻlgan moliya va bank sohasini eʼtibor markazida boʻlmogʻi lozim. Asosiy qonuning 26-bobi mamlakat moliya, pul va bank tizimiga bagʻishlangan boʻlib, unda davlat moliyaviy munosabatlarining asosi, iqtisodiy sohada amalga oshirilishi lozim boʻlgan yoʻnalishlarning huquqiy kafolati belgilab berilgan. Mazkur bob 147–151-moddalarni oʻz ichiga olgani holda, unda davlat budjeti, bank-moliya tizimi, pul aylanmasi, soliq tizimi, toʻlov va toʻlov tizimlari sohasidagi barcha yoʻnalishlar boʻyicha qabul qilinadigan qonun va qonunosti hujjatlarining poydevori boʻlib xizmat qiladi. Respublika moliya tizimi birinchi navbatda Konstitutsiyasining 147-moddasida belgilanganidek ***Oʻzbekiston Respublikasi oʻzining yagona moliya*** tizimiga ega ekanligi haqidagi normaning qatʼiy ekanligi qabul qilinadigan qonun va qonunosti hujjatlarning asosi sifatida koʻrish mumkin. Bozor munosabatlariga oʻtish sharoitlarida davlat rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari davlat moliya tizimiga jiddiy taʼsir koʻrsatdi. Shu tarzda yangi institutlar yuzaga keldi, moliya tizimining boshqa boʻgʻinlari mazmunida katta oʻzgarishlar yuz berdi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 147-moddasida belgilangan respublika yagona moliya tizimi quyidagi boʻgʻinlardan tarkib topgan:

- a) davlat budjeti, uning tuzilmasiga kiruvchi respublika budjeti, Qoraqalpogʻiston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar;
- b) davlat maqsadli jamgʻarmalari va budjetdan tashqari jamgʻarmalar;
- d) xoʻjalik yurituvchi subyektlar va iqtisodiyot sohalari moliyasi;
- e) kredit (davlat krediti va bank krediti);
- f) mulkiy va shaxsiy sugʻurta.

Oʻzbekiston Respublikasining hozirgi bosqichda tarkib topgan moliya tizimi maxsus maqsadli va budjetdan tashqari jamgʻarmalarni tashkil etishda jahon

tajribasidan foydalanadi, ushbu jamg'armalar yordamida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasiga nisbatan qattiq tartibga solish choralari qo'llanmaydi, shaxsiy sug'urta va mulkni sug'urta qilishda davlat monopoliyasi bekor qilingan. Moliya tizimining markaziy bo'g'ini mamlakatning **Davlat budjeti** bo'lib, uning yordamida davlatning markazlashtirilgan pul jamg'armasi tashkil etiladi va foydalaniladi. U davlat tomonidan o'zining ichki va tashqi funksiyalarini amalga oshirishi uchun asosiy moliyaviy baza bo'lib xizmat qiladi. Moliya tizimining ushbu bo'g'inida mamlakat daromadlarining asosiy qismi hamda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatdagi eng muhim xarajatlari to'planadi. Davlat budjeti moliya tizimining boshqa bo'g'inlari bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, muvofiqlashtiruvchi markaz vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining tarkibiy qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bu bo'g'in iqtisodiyotga samarali ta'sir ko'rsatish, xo'jalik yuritish jarayonlarini tartibga solish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirish va boshqalar uchun tobora ko'proq foydalanilmoqda. Mahalliy budjetlar bozor islohotlarining barcha bosqichlarida davlat tomonidan olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning vositasi bo'lib xizmat qiladi. Davlat budjeti yagona ekanligi va bu munosabatlarning barchasi moliya tizimini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi Budjet kodeksi hisoblanadi.

**Davlat krediti** vaqtincha davlat tasarrufiga tushadigan va iqtisodiyotni rivojlantirish, budjet taqchilligi va boshqa ehtiyojlarning ustuvor yo'nalishlarini moliyalashtirish uchun foydalaniladigan qo'shimcha pul mablag'larining to'planishini ta'minlaydi. Davlat kreditida davlat qarz oluvchi, yuridik va jismoniy shaxslar esa qarz beruvchi (kreditor)lar sifatida namoyon bo'ladi. Davlat krediti vositasida yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb etish turli shakllarda, avvalambor, davlat zayomlari, pul majburiyatlari va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularni joylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Davlat krediti "Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida"gi va "Davlat qarzi to'g'risida"gi Qonunlar asosida tartibga solinadi va uning miqdorlari Parlament tomonidan Konstitutsiyaning tegishli moddalarida belgilanadi. Davlat krediti O'zbekistonda davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilishda qarz majburiyatlarining quyidagi turlaridan foydalanilishi mumkin: davlat qimmatli qog'ozlari: qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan), o'rta muddatli (bir yildan besh yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan) va uzoq 12 muddatli (besh yildan ortiq davrga chiqariladigan); kreditlar (qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli); O'zbekiston Respublikasining kafolatlari (ssuda oluvchi tomonidan zayomlarni qaytarmaslik holati vujudga kelganda to'lab berish kafolati majburiyatlari); budjet daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik tafovutni qoplash uchun qisqa muddatli ssudalar (budjet ijrosidagi kassa uzilishlari: daromadlar hali kelib tushmadi, xarajatlarni esa hozir amalga oshirish kerak) davlat qimmatli qog'ozlari O'zbekiston Respublikasining kafolatlari kreditlar budjetning vaqtinchalik tafovutini qoplash uchun qisqa muddatli ssudalar qarz majburiyatlarini Bozor munosabatlari rivojlanishi va qimmatli qog'ozlar bozorining yuzaga kelishi sharoitlarida davlat kreditining muhim shakli yuridik shaxslar orasida

joylashtiriladigan davlat qisqa muddatli zayomlari hisoblanadi. *Bank krediti* kreditning asosiy shakli bo‘lib, bunda pul mablag‘lari vaqtincha ishlatilish uchun banklar tomonidan taqdim etiladi. Hozirgi vaqtda bank tomonidan kreditlashning obyektlari va sohalari tubdan o‘zgardi. Faqat davlat mulki hisoblangan banklar tomonidan amalga oshirilgan sobiq sovet bank kreditlash tizimidan farqli ravishda, hozirgi vaqtda bunday kreditlash huquqi mulkchilikning turli shakllaridagi tijorat banklariga berilgan.

**Mulkiy va shaxsiy sug‘urta** sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish usullaridan biri sifatida yuzaga kelib, tabiiy ofat, epidemiya, baxtsiz hodisalar natijasida yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan moddiy zararni oldindan tashkil etilgan zaxira jamg‘armalar hisobidan qoplash uchun foydalaniladi. Sug‘urta jamg‘armasi yuridik va jismoniy shaxslarning sug‘urta to‘lovlari hisobidan, qonunchilikda nazarda tutilgan ayrim hollarda esa budget mablag‘laridan shakllantiriladi. 1994-yil 1-iyulda O‘zbekiston hududida to‘laqonli milliy valyuta *so‘m*ning muomalaga kiritilishi bozor islohotlari rivojlanishining yangi bosqichini boshlab berdi hamda iqtisodiyotni barqarorlashtirish, davlat siyosatini mustahkamlash, davlat va jamiyat taraqqiyotini mustahkamlashda muhim omil bo‘ldi. Milliy valyuta davlat mustaqilligining ramzi, suveren davlat atributi, respublikaning umumiy boyligi va merosidir. Islohotlarning hozirgi bosqichining strategik yo‘nalishi so‘mni yanada mustahkamlash, uning erkin almashinuvini ta‘minlashdan iborat.

**Pul** – hamma tovarlar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar, bozor iqtisodiyotining eng asosiy vositasi. Pul o‘z tabiatiga ko‘ra, 3 xil xususiyatga ega: hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim xarid vositasi; boylik timsoli; mehnatni qiymat shaklida o‘lchab beradigan vosita hisoblanadi. Davlatning xo‘jalik-tashkiliy funksiyasi – pul muomalasini huquqiy tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Davlat pul yordamida mamlakatning iqtisodiyotiga ta‘sir ko‘rsatadi, ya‘ni pul yordamida mehnat va iste‘mol hisobga olinadi, ular nazorat qilinadi, xo‘jalik yuritishning usullari amalga oshiriladi, iqtisod rejimi va xo‘jalik hisoboti mustahkamlanadi. Umuman olganda, davlat puldan iqtisodni tashkil etish uchun maqsadida foydalanadi. Davlat pul tizimi davlat tomonidan pul muomalasining tashkil etish usulining o‘rnatilishi hisoblanadi. Pul iqtisodiy kategoriya sifatida xizmat qiluvchi maxsus tovar turi hisoblanadi. Pul tovar va tovarsiz ko‘rinishdagi (soliqlar, jarimalar) operatsiyalarni amalga oshirishda to‘lov vositasi sifatida xizmat qiladi. Pul bozor iqtisodiyotining muhim omilini tashkil qiladi. Hozirgi iqtisodiy hayot, xususan bozor iqtisodiyoti pul bilan tirikdir. Pul bo‘lmagan joyda bozor iqtisodiyoti bo‘lishi mumkin emas. Bozor iqtisodi tovar va tovarlashgan xizmatlarning ishlab chiqarishidan boshlab, to iste‘molgacha bo‘lgan harakatdan iboratki, bu pul vositasida amalga oshadi. Ishlab chiqarish resurslari bozorda pulga xarid qilinib, tovarlar yaratiladi va pul daromadlariga ayirboshlashib, iste‘molga o‘tadi. Tovarlarni iste‘molgami yoki investitsiya uchun sarf etiladimi, bari bir pul yordamida harakatga keladi. O‘zbekiston Respublikasida pul tizimi bu respublikada pul muomalasini tashkil etish shakl va usullarini huquqiy tartibga solish demakdir. Demak, pul tizimi konstitutsiyaviy maqomga ega. Hozirgi banknotalarning bevosita muomalasiga davlat tomonidan

maxsus vakolat berilgan organ tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatimizda vakolatli organ Markaziy bank hisoblanib, unga davlat hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotalar va tangalar chiqarishda mutlaq vakolat berilgan. Muomaladagi pul belgilari Markaziy bankning qat'iy majburiyatlari bo'lib, ushbu pul belgilari uning barcha aktivlari bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar tezkorlikni ta'minlash va axborot almashinuvini tezkorlik bilan ta'minlash maqsadida banklar o'z faoliyatining xavfsizligini ta'minlash, omonatlarni, kreditlar va boshqa investitsiyalarning qaytarilishini kafolatlash maqsadida o'z mijozlari (vakillari) to'g'risidagi ma'lumotlarni qonunda belgilangan tartibda va doirada o'zaro almashib turishlari va bir-birlariga taqdim etishlari mumkin.

Bayon etilganlarga ko'ra shuni xulosa qilish mumkinki, banklar va ularning faoliyatiga daxldor ma'lumotlarni olish, tashish va almashish ham qonun bilan chegaralanadi va muhofaza etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi: Rasmiy nashr. –T.: Adolat, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr. –T.: Adolat, 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60- sonli Farmoni.